

FOYDALANUVCHI SHARTNOMASI
(sayt, kontent, materiallardan foydalanish qoidalari)

Toshkent shahri

«06 » aprel 2023 yil.

1. Ushbu foydalanuvchi shartnomasi (bundan buyon matnda "shartnoma" deb yuritiladi) <https://uznetix.com>, <http://uznetix.ru>, <http://uznetix.site>, <https://uznetix.uz>, <https://uznetix.biz> (va ularning subdomenlari) (keyingi o'rinlarda – "sayt" deb ataladi) saytlardan va ma'muriyatning mualliflik materiallari (keyingi o'rinlarda – "materiallar" deb ataladi) dan foydalanish qoidalaridir, xizmatlarga buyurtma berishda foydalanuvchiga topshiriladi. Foydalanish qoidalari yakka tartibdagi tadbirkor Azizov Azamjon Avazovich (keyingi o'rinlarda – "Ma'muriyat") tomonidan belgilanadi va ushbu qoidalar shartlarini to'liq qabul qilgan shaxslarga (keyingi o'rinlarda – "foydalanuvchilar") nisbatan qo'llaniladi.

2. Ushbu shartnoma Ma'muriyat va foydalanuvchi o'rtasida tuziladi. Foydalanuvchi tomonidan saytning har qanday bo'limiga murojaat qilishi, uning alohida funktsiyalaridan yoki to'liq foydalanishi, foydalanuvchiga ushbu shartnoda ko'rsatilgan shartlar va qoidalarga to'liq rioya qilish majburiyatini yuklaydi.

3. Ushbu shartnoma foydalanuvchi tomonidan so'zsiz qabul qilinadi. Agar foydalanuvchi ushbu shartnoma shartlarini qabul qilmasa, u darhol saytdan foydalanishni rad qilishi va uni tark etishi shart.

4. Bu sayt O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida xizmatlarga buyurtma berish uchun dasturiy va texnik imkoniyatlar to'plami.

5. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar hujjatni yozma ravishda ikki tomonlama imzolashni talab qilmaydi. Shartnoma elektron shaklda amal qiladi.

6. Saytning barcha ob'ektlari, shu jumladan dizayn, dizayn elementlari, matn, grafik tasvirlar, videolar, boshqa ob'ektlar, shuningdek saytda joylashtirilgan va/yoki xizmatlarga buyurtma berish paytida Foydalanuvchiga uzatiladigan har qanday materiallar ma'muriyatning eksklyuziv huquqlari ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk to'g'risidagi qonunchiligi, shuningdek tegishli xalqaro shartnoma va konvensiyalarga muvofiq himoya qilinadi.

7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va shartnomaning 6-bandida ko'rsatilganlar bilan cheklanmagan holda, sayt va uning har qanday tarkibiy qismlaridan nusxa ko'chirish (ko'paytirish), ishlov berish, tarqatish, freymda ko'rsatish, nashr etish, yuklab olish, uzatish, sotish yoki boshqa usulda to'liq foydalanish faqat Ma'muriyat va boshqa mualliflik huquqi egalarining (ishlab chiqaruvchilarning) oldindan yozma ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

8. Ma'muriyatning bunday roziligi bo'lgan taqdirda, foydalanuvchi yuqoridagi bandda ko'rsatilgan materiallardan, mualliflik huquqiga tegishli bo'lgan barcha elementlarni saqlab qolgan va tegishli ob'ektlarga hech qanday o'zgartirishlar kiritmagan holda, shaxsiy, notijorat maqsadlarda foydalanishi mumkin.

9. Ma'muriyatning yozma ruxsatisiz saytdan foydalanish, shuningdek saytda joylashtirilgan har qanday ma'lumotdan, ma'muriyatning yoki boshqa qonuniy huquq egalarining (ishlab chiqaruvchilarning) yozma ruxsatisiz materiallardan foydalanish noqonuniy hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq sudga ko'rib chiqilib, huquqbuzarlarni ma'muriy, jinoiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

10. Materiallarni ko'rish, o'rganish sayt orqali yoki Foydalanuvchining elektron uskunolari orqali amalga oshiriladi. Foydalanuvchiga shartnomada ko'rsatilmagan materiallardan yoki ularning qismlaridan boshqacha foydalanish huquqi berilmaydi.

11. Sayt uchinchi shaxslarga tegishli yoki boshqariladigan saytlarga havolalarni o'z ichiga olishi mumkin. Foydalanuvchi yuqoridagi saytlarga o'tayotganda, Ma'muriyat bunday sayt tarkibini nazorat qila olmasligini va unda joylashtirilgan ma'lumotlar, materiallar, dasturiy ta'minot va boshqalar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmasligini va Foydalanuvchi bu saytlarga o'tayotganda barcha havflarni o'z zimmasiga olishni qabul qiladi. Sayt yoki boshqa veb-saytlarga havolalar ma'lum bir kompaniya nomlari, rasmlari va boshqa savdo belgilari yoki uchinchi tomon savdo nomlarini o'z ichiga olishi mumkin. Foydalanuvchining saytga kirishi Ma'muriyat yoki bunday belgilarning egasi bo'lgan uchinchi shaxsning oldindan yozma rozilgisiz saytda ko'rsatilgan har qanday belgilardan foydalanish yoki egalik qilish uchun ruxsat berish sifatida qaralmasligi kerak.

12. Foydalanuvchi majburiyatlari:

12.1. Sayt bilan ishlashda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish, sayt ba materiallardan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik.

12.2. Sayt, materiallar yordamida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki ushbu shartnoma talablariga zid bo'lgan noqonuniy harakatlarni amalga oshirmaslik.

12.3. Saytdan olingan ma'lumotlarni, shu jumladan ma'muriyatning mualliflik huquqlari bilan himoyalangan materiallarni ma'muriyat rozilgisiz iqtibos qolmaslik.

12.4. Saytda joylashtirilgan ushbu shartnomaning ohirgi o'zgarishlari haqida oyiga kamida bir marta tanishib turish.

12.5. Saytga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik.

12.6. Ma'muriyatning rozilgisiz materiallardan foydalanmaslik.

12.7. Sayt sozlamalarida Ma'muriyat tomonidan belgilangan cheklovlarni chetlab o'tishga qaratilgan noqonuniy harakatlarga qaratilgan har qanday kompyuter dasturlari, avtomatik algoritmlar va usullarni tarqatmaslik va/yoki ulardan foydalanmaslik.

12.8. Ma'muriyat tomonidan taqdim etilgan materiallarni olish, yig'ish, qayta ishlash, nusxalash va keyinchalik tarqatish maqsadi bilan saytga kirish uchun mo'ljallangan turli xil dasturiy ta'minotlardan foydalanmaslik.

13. Foydalanuvchi saytni, materiallarni o'zi tavakkal qilib va o'z javobgarligi, shu jumladan uning ishonchliligi, to'liqligi yoki foydaliligini baholash asosida ishlatishga rozi.

14. Foydalanuvchi saytda joylashtirilgan materiallar, ma'lumotlar, grafik, axborot, video va audio kontentdan foydalanish bilan bog'liq barcha xavflarni mustaqil ravishda baholashi kerakligini tushunadi va qabul qiladi.

15. Ma'muriyat sayt va materiallar yordamida olinishi mumkin bo'lgan natijalar aniq, ishonchli, foydalanuvchi talablariga to'liq javob beradigan va har qanday faktlarni rasmiy tasdiqlash uchun ishlatilishi mumkinligiga kafolat bermaydi.

16. Foydalanuvchi sayt, materiallar xalqaro amaliyotda umumiy qabul qilingan printsiplarga muvofiq "boricha" va "mavjud hajmda" taqdim etilishini tushunadi va qabul qiladi.

17. Ushbu shartnomaning biron bir qoidasi qasddan yoki beparvolik bilan buzilgan taqdirda foydalanuvchi olishi mumkin bo'lgan har qanday zarar sayt ma'muriyati tomonidan qoplanmaydi.

18. Ma'muriyat tomonidan foydalanuvchining kelishuv qoidalarini buzgan taqdiridagi harakatsizligi, ma'muriyatni o'z manfaatlarini himoya qilish va qonun hujjatlariga muvofiq muhofaza qilinadigan kontent va materiallarga mualliflik huquqini himoya qilish uchun keyinchalik tegishli choralar ko'rish huquqidan mahrum qilmaydi.

19. Ma'muriyat va foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xalqaro normativ hujjatlarda belgilangan ma'noda va talqinda fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda saytdan foydalanish huquqini berish munosabati bo'yicha javobgarlikdan ozod qilinadi.

20. Saytning ishlashi va rivojlanishi munosabati bo'yicha, Ma'muriyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu shartnomaga va foydalanuvchilarni saytga, materiallarga kirishni tartibga solish maqsadida Ma'muriyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilishi va qabul qilinishi mumkin bo'lgan boshqa maxsus hujjatlarga amal qiladi.

21. Agar ushbu shartnomaning bajarilishi va saytdan foydalanish bilan bog'liq nizolar va kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, bunday kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan tegishli tomon tarafidan dastlabki xabarnoma olingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida hal qilinishi kerak. Agar tomonlar o'rtasida bahsli masalalar bo'yicha kelishuvga erishilmasa, barcha nizolar va kelishmovchiliklar sud tomonidan Ma'muriyat manzilida ko'rib chiqilishi kerak.

22. Agar biron bir sababga ko'ra ushbu shartnomaning bir yoki bir nechta qoidolari bekor qilingan yoki qonuniy kuchga ega bo'lmagan deb topilsa, bu shartnomaning qolgan qoidalarining amal qilish muddati yoki qo'llanilishiga ta'sir qilmaydi.